



**“MARKAZIY SUG‘DDA V-VIII ASRLAR MA’MURIY BOSHQARUV  
TIZIMI VA SIYOSIY HAYOT MAVZUSINI O‘RGANISH” MAVZUSINI  
TARIX DARSLARIDA O‘QUVCHILARGA O‘RGATISHNING  
INTERFAOL USULLARI**

*Jizzax ilg‘or kasbiy mahorat texnikumi Tarix fani o‘qituvchisi*

***O‘rolov Asilbek Absalom o‘g‘li.***

*Jizzax ilg‘or kasbiy mahorat texnikumi Tarix fani o‘qituvchisi*

***Shukurov Abror Akram o‘g‘li***

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada “Markaziy Sug‘dda V-VIII asrlar ma’muriy boshqaruv tizimi va siyosiy hayot mavzusini o‘rganish” mavzusini tarix darslarida o‘quvchilarga o‘rgatishning interfaol usullari haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Zamonaviy ta’lim, pedagogik faoliyat, “Aqliy xujum”, “Baliq skeleti”, “Baxs-munozara”, “BBB”, “Blits-so‘rov”, “Bumerang”, “Venn diagrammasi”, “Video topishmoq”, “Yagona davra”, “Debat”, “Yozma ish”, “T-sxema”, “Insert”, “Sase-study”, “Klaster”, “Nilufar guli”, “SWOT - tahlil”, “Charxpalak”, “FSMU” metodi.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются интерактивные методы обучения теме «Административная система управления и политическая жизнь Центрального Согда в V–VIII веках» на уроках истории.

**Ключевые слова:** современное образование, педагогическая деятельность, «Мозговой штурм», «Рыбья кость» (Fishbone), «Дискуссия», «ЗХУ» (Знаю–Хочу узнать–Узнал), «Блиц-опрос», «Бумеранг», «Диаграмма Венна», «Видео-загадка», «Единый круг», «Дебаты», письменная работа, «Т-схема», «Инсерт», «Кейс-стади», «Кластер», «Цветок лотоса», SWOT-анализ, «Чархпалак», метод «ФСМУ».



**Annation:** This article discusses interactive teaching methods for presenting the topic “The Administrative System and Political Life of Central Sogdiana in the 5th–8th Centuries” in history lessons. It highlights modern pedagogical approaches aimed at increasing students’ cognitive activity, developing critical thinking skills, and fostering independent analysis of historical processes through the use of interactive teaching methods.

**Keywords:** modern education, pedagogical activity, Brainstorming, Fishbone Diagram, Discussion, KWL (Know–Want to Know–Learned), Blitz Survey, Boomerang Method, Venn Diagram, Video Puzzle, Single Circle, Debate, Written Assignment, T-Chart, INSERT Method, Case Study, Cluster, Lotus Flower Technique, SWOT Analysis, Charxpalak Method, FSMU Method.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o’quvchilarning o’quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo’llash borasida katta tajriba to’plangan bo’lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Zamonaviy ta’limni tashkil etish, ayniqsa, interfaol metodlardan foydalanish asosida dars jarayonlarini tashkil etishga qo’yiladigan talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Interfaol usullarni o’quv jarayonida liberalizatsiya qilish, demokratlashtirish, hamkorlik ham ijodkorlikni tashkil etishni taqozo etmoqda.

Bir so’z bilan aytganda, o’quv jarayoni markazida o’quvchi bo’lmog’i lozim va o’quv jarayoni unga qaratilgan, yo’naltirilgan bo’lishi talab etilmoqda. Shaxsga yo’naltirilgan ta’lim o’quvchining o’quv mehnatini tashkil etishni harakatlantiruvchi kuch bo’lib xizmat qiladi.

Bunday ta’lim o’qituvchi va o’quvchiga doimiy ijodiy izlanish, uzluksiz o’z ustida ishlash imkoniyatini beradi. Bu holatning ijobiy kechishi ta’limda sifat va



samaradorlikning kafolatidir. Darslar jarayonida interfaol usullardan foydalanish o'z mohiyatiga ko'ra sub'ektiv xususiyatiga ega, ya'ni har bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim. Shakl va vositalar yordamida darslarni tashkil etishni quyidagi interfaol metodlar kafolatlaydi:

- pedagogik faoliyat (ta'lim-tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirishi;
- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha bilimlarning puxta egallanishini ta'minlanishi;
- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarining shakllantirilishi;
- o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur shart- sharoitlarni yaratishi;
- ta'lim-tarbiya jarayonida demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustivorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Ta'lim jarayonida interfaol usullardan foydalanishning turli vositalari va ularning ta'siri o'z-o'zidan yuzaga chiqmaydi. Interfaol usullarni to'g'ri, o'z vaqtida va unumli qo'llashga bog'liq. Shunday ekan, ta'lim jarayonida interfaol usullarning samarali qo'llanilishi quyidagi omillar bilan kafolatlanadi:

- mazkur usulni qo'llash uchun oldindan puxta tayyorgarlik ko'rish va rejalashtirish lozim;
- ushbu usulni qo'llash uchun tegishli vaziyat yaratilishi zarur;
- interfaol ta'lim jarayoni umumpedagogik talablar asosida, hissiyot-ehtiroslarga berilmagan holda, do'stona, samimiyatli ravishda tashkil etilishi;
- individual yondashuv jarayoni o'quvchining erkin fikr yuritish, o'zining ichki kechinmalarini ijodiy bayon qilishlari uchun tegishli sharoitning yaratilishi;
- interfaol metodlar turli shakllarda amalga oshirilishi zarur.



Bu “Sug‘d vohasining bronza davri moddiy madaniyati” mavzusini o‘qitishga ham bevosita aloqadordir. Bugungi kunda ta’lim tizimida “Aqliy xujum”, “Baliq skeleti”, “Baxs-munozara”, “BBB”, “Blits-so‘rov”, “Bumerang”, “Venn diagrammasi”, “Video topishmoq”, “Yagona davra”, “Debat”, “Yozma ish”, “T-sxema”, “Insert”, “Sase-study”, “Klaster”, “Nilufar guli”, “SWOT - tahlil”, “Charxpalak” kabi interfaol metodlar keng qo‘llanilmoqda. Albatta, bu interfaol metodlar qo‘llanilishi dars mashg‘uloti shaklidan kelib chiqib, o‘qituvchining ijodiy yondashuviga bog‘liq bo‘ladi. Ya’ni, ularni qaysi birini qo‘llash mavzuning mohiyatiga chambarchas aloqadordir. Shu xususiyatlarni inobatga olib interfaol metodlardan dars jarayonida foydalaniladi.

“Markaziy So‘g‘dda V-VIII asrlar ma’muriy boshqaruv tizimi va siyosiy hayot mavzusini o‘rganish” mavzusini o‘qitishda quyidagi interfaol metodlardan foydalandik:

1) **Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim. (BBB)** metodi talabalarga muayyan mavzu bo‘yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Uni qo‘llashda talabalar guruh yoki jamoada ishlashlari mumkin. Guruhda ishlashda mashg‘ulot yakunida guruhlar tomonidan bajarilgan ishlar tahlil qilinadi. Har bir guruh umumiy jadval asosida o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi. Mashg‘ulot yakunida javdal bandlari bo‘yicha guruhlarining munosabatlari umumlashtiriladi.

Ushbu interfaol metodning afzalliklari talabalarning ma’lumot bilan mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, savollarni ifodalash qobiliyatlarini shakllantiradi.

O‘quv faoliyati bevosita doska yoki qog‘ozda o‘z aksini quyidagi jadval asosida tashkil etiladi:

| Bilaman | Bilishni xohlayman | Bilib oldim |
|---------|--------------------|-------------|
|---------|--------------------|-------------|




|                                                                       |                                     |                                                   |
|-----------------------------------------------------------------------|-------------------------------------|---------------------------------------------------|
| O'zbekiston hududida<br>vujudga kelgan qadimgi<br>aholi turar joylari | Ilk o'rta asrlar davri<br>tarixi    | so'g'dliklar Zarafshon<br>vohasida vujudga kelgan |
| So'g'd va so'g'dliklar<br>madaniyati                                  | Madaniy meros qanday<br>shakllangan | So'g'd va so'g'dliklar<br>madaniyati              |

2) Blitz-so'rov metodi. "Blitz-so'rov" (inglizcha "blitz" - tezkor, bir zumda) metodi berilgan savollarga qisqa, aniq va lo'nda javob qaytarilishini taqozo etadigan metod sanaladi. Ushbu metodga muvofik savollar, asosan, o'qituvchi tomonidan beriladi. Berilgan savollarga javoblar jamoaviy, guruxli, juftlik yoki individual tarzda qaytarilishi mumkin. "Blitz-so'rov" metodini qo'llashda mavzuga doir tayanch tushunchalar, asosiy g'oyalarning mohiyati talabalar tomonidan og'zaki, yozma yoki jadval tarzida yoritilishi mumkin. Mashg'ulotlarda ushbu metodni qo'llash quyidagicha kechadi:

O'quvchilar o'rganilayotgan mavzu, muayyan tarkibiy qismlar mohiyatini ochib berishni talab qiladigan savollarni ishlab chiqib, talabalar e'tiboriga xavola qiladi.



Guruhda ishlashda bir nafar o'quvchi berilgan savolga javob beradi, uning jamoadoshlari javobni to'ldiradi



"Blitz-so'rov" metodining boshqa interfaol metodlardan afzalligi shundaki, bu metod harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan. Ushbu metod o'quvchilarga



tarqatilgan qog'ozlarda ko'rsatilgan harakatlar ketma ketligini avval yakka holda mustaqil ravishda belgilab, so'ngra o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish yoki o'z fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikir bo'la olishga yordam beradi.

Ushbu mavzuni BLITS-SO'ROV metodi asosida quyidagicha tashkil qilish mumkin:

1. Tarix bu.....
2. Zarafshon vohasi qayer.....
3. Zarafshon vohasida kimlar yashagan.....?
4. Afrosiyob yodgorligi.....
5. Zarafshon vohasi ilk o'rta asr davri manzilgohlarini ayting.....
6. So'g'd va so'g'dliklar, mahalliy va xalqaro yo'llarning shakllanishiga.....
7. Samarqand nimalari bilan mashhur?
8. Qashqadaryo vohasini tasvirlang
9. Jizzax tarixi qachondan boshlangan

**3) “FSMU” metodi.** Bu metod o'quvchilarda o'rganilayotgan mavzu yuzasidan fikrlarni mustaqil bayon etish, shaxsiy mulohazalarni dalillash (misollar bilan asoslash), bahslashish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

“FSMU” metodi munozarali masalalarni xal etishda, baxs munozaralar o'tkazishda samarali xisoblanadi. Odatda, ushbu metod dars mashg'ulotlari yakunida va o'quv rejasi asosida biron bo'lim yoki mavzu o'rganib bo'lingach qo'llaniladi.

“FSMU” metodini qo'llash qoidalar:

- o'qituvchi o'quvchilar bilan birga baxs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo'lgan muammoni yoki o'rganilgan bo'limini belgilab oladi;



- o'qituvchi o'quv mashg'ulotida avval har bir o'quvchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruxlarda ish olib borilishi haqida o'quvchilarga ma'lumot beradi;

-mashg'ulot davomida har bir tinglovchiga o'z fikrini erkin holda to'liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o'tiladi;

-har bir o'quvchiga FSMU metodining to'rt bosqichi yozilgan qog'ozlar tarqatiladi:

F - fikringizni bayon eting;

S - fikringizning bayoniga sabab ko'rsating;

M - ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring;

U - fikringizni umumlashtiring.

Har bir o'quvchi yakka tartibda tarqatilgan qog'ozni FSMUning to'rt bosqichi bo'yicha o'z fikrlarini yozma bayon etgan holda to'ldiradi.

- har bir o'quvchi o'z qog'ozlarini to'latib bo'lgach, o'qituvchi ularni guruhlarga ajratish usullarining biridan foydalangan holda kichik guruhlarga bo'lib yuboradi;

-o'qituvchi har bir kichik guruxga FSMU texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan yangi qog'ozlarni tarqatadi;

-o'qituvchi kichik guruhlarga har birlari yozgan qog'ozlardagi fikr va dalillarni umumlashtirgan holda to'rt bosqich bo'yicha guruh uchun tarqatilgan qog'ozga yozishlarini taklif etadi;

- kichik guruhlarda avval har bir o'quvchi o'zi yozgan har bir bosqichdagi fikrlari bilan guruh a'zolarini tanishtirib o'tadi. Guruh a'zolarining barcha fikrlari o'rganilgach, kichik guruh a'zolari ularni umumlashtirishga kirishadi;





- gurux a'zolari FSMUning to'rt bosqichini xar biri bo'yicha fikrlarini umumlashtirib, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko'radilar;

- fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir o'quvchi o'z fikrlarini ximoya etishi, isbotlashi mumkin;

- kichik guruxlar umumlashtirilgan fikrlarini himoya qiladilar: guruhdan bir vakil guruhning fikrini har bir bosqich bo'yicha alohida o'qiydi (izoh bermagan holda). Ayrim hollarda ba'zi bo'limlarni izohlashi mumkin. Xulosa qismida o'qituvchi bildirilgan fikrlarga o'z munosabatini bildiradi.

Mavzu: "Markaziy So'g'dda V-VIII asrlar ma'muriy boshqaruv tizimi va siyosiy hayot mavzusini o'rganish"

|                                                         |                                                                                                                                                                                  |
|---------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| (F) Fikringizni bayon eting                             | Zarafshon vohasida vujudga kelgan o'rta asrlar davri alohida ajralib turadi                                                                                                      |
| (S) Fikringiz bayoniga sabab keltiring                  | O'zbek davlatchilik tarixi bilan shug'ullangan olimlarning barchasi ilk o'rta asrlar davri haqida ma'lumotlar berib o'tgan.                                                      |
| (M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring | E.V.Rtveladze, T.Sh.Shirinov, A.S.Sagdullaev, O'.Mavlonov, A.Isxoqov, R.X.Sulaymonov kabi olimlarimiz O'zbekiston davlatchiligida davrining ahamiyati haqida kitoblar yozishgan. |
| (U) Fikringizni umumlashtiring                          | O'zbekistonda qishloq turar joy taraqqiyotida o'rta asrlar sug'dliklarni o'rni o'zining madaniy meroslari bilan yuksakdir.                                                       |

FSMU metodining afzallik jihati shundaki, bu metod tinglovchilarni o'z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq xolda baxslashishga, shu bilan bir qatorda tinglovchilarni o'quv jarayonida egallagan





bilimlarini tahlil etishga, kay darajada egallaganliklarini baholashga xamda tinglovchilarni baxslashish madaniyatiga o'rgatadi.

Xulosa qilib aytganimizda, interfaol metodlarni dars jaryonida qo'llashning quyidagi afzallik jihatlari namoyon bo'ladi:

- birinchidan, ushbu metodlar dars mashg'ulotlarida foydalidir, ya'ni o'quvchilarni faollikka uyndaydi, o'quvchilarning jamoa bilan ishlash ko'nikmasi shakllanadi;

- ikkinchidan, interfaol metodlar asosida tashkil etilgan dars mashg'ulotlarida o'quvchi-o'qituvchi, o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi hamkorligi rivojlanadi;

- uchinchidan, interfaol metodlarni qo'llashda o'qituvchi dars mavzusi, muammosi, hal qilinishi lozim bo'lgan masalalarni inobatga olgan holda yondashsa, dars mashg'ulotining samaradorlik ko'rsatkichi yuqori bo'ladi;

- to'rtinchidan, interfaol metodlar o'quvchilarga o'z fikrlarini erkin ayta olishga, muammolarni ijodiy hal qilishga rag'bat uyg'otadi.